

Hujjat kuchini yo'qotgan 01.08.2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

**BANK TIZIMINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI YANADA OSHIRISH VA
INVESTITSIYAVIY FAOLLIGINI KUCHAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI
TO'G'RSIDA**



LexUZ sharhi

Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyuldagi PF-6021-sonli "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi Farmoniga asosan 2020-yil 1-avgustdan o'z kuchini yo'qotadi.

Respublika bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish, tijorat banklarining kapitallashuv darajasini o'stirish, ularning investitsiyaviy faoliyatini kuchaytirish hamda ichki manbalar hisobidan iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan kreditlar hajmlarini ko'paytirish, shuningdek aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini uzoq muddatli depozitlarga jalb etish maqsadida:

Oldingi tahrirga qarang.

(1-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 4-yanvardagi PQ-1461-sonli qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2011-yil, 1-2-son, 3-modda)

2. Aksiyadorlik tijorat banklarining aksiyadorlari va Kuzatuvchi kengashlarining 2010-yilda qo'shimcha mablag'larni jalb etish va banklarning jami kapitallarini 2-ilovaga* muvofiq 490 mlrd so'mga ko'paytirish to'g'risidagi qaroriga rozilik berilsin.

**2-ilova rus tilidagi matnda berilgan.*

Oldingi tahrirga qarang.

3. Yangidan tashkil etilayotgan tijorat banklari ustav kapitalining eng kam miqdori 100,0 milliard so'm qilib belgilansin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari bilan birgalikda 2019-yilning 19-yanvariga kadar tijorat banklarining ustav kapitali miqdorlari mazkur bandda ko'rsatilgan talablarga yetkazilishini ta'minlasin.

(3-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-sentabrdagi PF-5197-sonli Farmoni tahririda)

4. Tijorat banklari tomonidan, shu jumladan boshqa investorlar ishtirokida bankrot korxonalar negizida tashkil etilgan korxonalarga, yangi investorlarga sotilgunga qadar, ular davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan boshlab uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga quyidagi huquqlar berilsin:

Oldingi tahrirga qarang.

(4-bandning ikkinchi xatboshisiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-maydagi PF-5447-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.05.2018-y., 06/18/5447/1269-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-noyabrdagi PF-4058-son Farmoniga muvofiq, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini o'rnatilgan me'yordan kamroq hisoblash.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi Markaziy bank va tijorat banklari bilan birgalikda bir oy muddatda tijorat banklari, shu jumladan boshqa investorlar ishtirokida bankrot korxonalar negizida tashkil etilgan korxonalarning asosiy vositalari va nomoddiy aktivlari bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini o'rnatilgan me'yordan kamroq hisoblash tartibi to'g'risida vaqtinchalik nizomni ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritсин.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari R.S. Azimov va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki raisi F.M. Mullajonov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.,
2010-yil 6-aprel,
PQ-1317-son

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 14-15-son, 104-modda; 2011-yil, 1-2-son, 3-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.05.2018-y., 06/18/5447/1269-son)